O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:

№ BD 22

2025 yil 29 august

"TASDIQLAYMAN"

Samarqand davlat pedagogika

instituti rektori

[illegible] Eshmatova

SHAHARLAR VA QISHLOQLAR GEOGRAFIYASI FANINING O‘QUV DASTURI

(kunduzgi va kechki)

Bilim sohasi:	**100000 - Ta’lim**
Ta’lim sohasi:	**110000 – Ta’lim**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi**

3

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
ShQGT304	2025-2026	6	4

Fan/mavzu turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Tanlov fan	O‘zbek	3

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Shaharlar va qishloqlar geografiyasi	60 (30/30)	60	120

2. I. Fanning mazmuni

Mazkur fanning o‘qitilishidan maqsad geografiya mutaxassisligi talabalariga shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi va joylashuv qonuniyatlari hamda xususiyatlariga oid nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi – aholi joylashuvi maskanlari shahar va qishloq joylarining asosiy geografik xususiyatlari, qonuniyatlarini va nazariyasini o‘rganish “shahar” tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish, fanning tadqiqot uslubiyoti, uslublari, asosiy tamoyillari, qonuniyatlarini o‘rganish, shaharlarning aholi va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi o‘ziga xos o‘rni, mamlakat va rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati haqida nazariy va amaliy bilim berish, fandagi asosiy tushuncha, atama, terminlarning ma’nosini o‘rganish, turli mintaqa va hududlarda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga iqtisodiy geografik baho berishni o‘rganishdan iborat.

Shaharlar geografiyasi fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- shaharlar va qishloqlar geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti, asosiy termin, tushunchalari; shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyati; shaharlarning tarixiy shakllanishi va genetik tiplari; shahar aglomeratsiyalari, megapolis, konurbastiya haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- shaharlar klassifikastiyasi va funkstional tipologiyasini; yirik shaharlar rivojlanishi va urbaniyazastiya jarayonlarini; shaharlarning hududiy tizimi va geoekologik muammolarini; shaharlar geografiyasini o‘rganishda ilmiy tadqiqot usullari hamda zamonaviy geografik axborot tizimlarini bilishi va undan foydalana olishi;
- shaharlarni tasniflash va turlarga ajratish; urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish tendenstiyalarini tahlil qilish; shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari va istiqbollarini aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma’ruza mashg‘ulotlari)

I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Fan. Fanlar tizimi. Geografiya fanlari tizimi. Shaharlar va qishloqlar geografiyasi fanining obyekti va predmeti, uni o‘rganishdagi asosiy vazifa va usullar.

Shaharlar va qishloqlar geografiyasining ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanining alohida tarmog‘i sifatida shakllanishi. Uning turli mamlakat va rayonlarda shaharlarning vujudga kelishi, hududiy tarkibi va rivojlanishidagi qonuniyatlarni o‘rganuvchi fan ekanligi; shaharlarning ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil etilishida tutgan o‘rni, fanning obyekti, predmeti, vazifalari. Shaharlar geografiyasining boshqa fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqasi, o‘rganish uslublari. Shaharlarni geografik o‘rganish.

Yer yuzidagi ilk sivilizatsiya o‘choqlari va qadimgi shaharlar barpo bo‘lgan makonlar, ilk shaharlar. Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Hindistonda vujudga kelgan shaharlar, antik dunyo shaharlari va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Shaharlar shakllanishining tarixiy bosqichlari. Turli mintaqalarda shaharlarning tarixiy shakllanishi, Evropa, Osiyo (Sharq), Amerika qit’alarida shaharlarni vujudga kelishidagi asosiy xususiyatlar. «Shahar» tushunchasi va asosiy mezonlari, ushbu tushunchaning turli davr va jahon mamlakatlarida bir xil emasligi.

Shahar hosil qiluvchi asosiy omillar.

Shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar. Shaharlarning genetik tipologiyasi. Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida geografik o‘rinning roli: makro, mezo va mikro geografik o‘rin. Shaharlarning iqtisodiy geografik o‘rni, uning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy o‘zgaruvchanligi, “o‘lik shaharlar”. Shaharlar geografik o‘rnining transport, boshqaruv, iqtisodiy, siyosiy va geostrategik ahamiyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharlar rivojlanishi.

Shaharlar klassifikatsiyasi (tasnifi).

Shaharlar klassifikatsiyasi: oddiy va murakkab klassifikatsiya; shahar va shaharchalarning 8 bosqichga bo‘linishi. BMT klassifikatsiyasi. Shaharlar klassifikatsiyasininig ahamiyati va mazmuni. Shaharlar piramidasi. Uning asosida mamlakat shaharlari rivojlanishidagi asosiy muammolarni aniqlash. O‘zbekiston Respublikasi shaharlarini katta-kichikligiga qarab tabaqalash, shaharlar ierarxiyasi. Zipfa-Styuart qonuni, shaharlarni rivojlantirishda uning ahamiyati, “millioner shaharlar”. Mamlakatlarning “bosh shahri”, megapolis haqida tushuncha. Boshqaruv nuqtai nazaridan shaharlarning turlari: respublika, viloyat va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar.

Shaharlarning funksiyalari.

Shaharlarning funksiyalari, funksional o‘xshash jihatlari va farqlari, shaharlarning funksional tiplari va katta-kichikligi o‘rtasidagi qonuniy aloqadorlik. Industrial shaharlar. Posindustrial shaharlar. Shaharlar funksiyalarining o‘zgarishi.

Shaharlarning funksional tiplarga ajratish usullari, yirik ko‘p funksiyali shaharlar, keng tarmoqli sanoat markazlari, sanoat, transport, rekreatsiya, ilm-fan va boshqa sohalarga ixtisoslashgan shaharlar. O‘zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo‘yicha guruhlarga ajratilishi. Poytaxt shaharlar, ularni tanlash va rivojlantirishga qo‘yilgan talablar. Poytaxt shaharlar muammolari. Poytaxt shaharlar geografik o‘rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati. Yirik poytaxt shaharlar rivojlanishini nazorat qilish bo‘yicha jahon tajribalari. Global shaharlar va ularni ajratish, tasniflash (S.Sassen, N. Sluka va b. ishlari). Xalqaro ixtisoslashuv-moliyaviy (London, Jeneva, Syurix), iqtisodiy (Nyu-York, Myunxen, Los-Anjeles), siyosiy (Vena, Gaaga, Amsterdam), turizm (Singapur, Kuala-Lumpur) markazlari. Global shaharlarning jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni va rivojlanish muammolari. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida shaharlar funksiyalarining o‘zgarishi.

Shaharlarning hududiy tizimlari.

Shaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari. Shahar aglomeratsiyalari vujudga kelishining ikki turi (G.Lappo metodikasi). Aglomeratsiya “yadrosi” va “yo‘ldosh shahar”haqida tushuncha. Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari. Shaharlarning dinamik rivojlanish modellari (J.Forrester, K.Doksiadis, N.Ladovskiy va b.). Konurbatsiya, megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari. Jahonning yirik

megalopolislari (Tokaydo, BosVash, ChiPits,San-San va b.), ular rivojlanishining ijobiy va salbiy jihatlari, boshqarish va tartibga solish yo‘llari.

Urbanizatsiya tushunchasi va uning turlari.

Urbanizatsiyaning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ekanligi, asosiy va yordamchi sxemasi ko‘rsatkichlari (V.Pokshishevskiy, B.Garne, E.Perstik va b.larning qarashlari). Urbanizatsiyaning kelib chiqishi va tarqalishi. Industrial urbanizmdan oldingi vaziyat. Zamonaviy urbanizatsiya.

D.Djibbsning urbanizatsiyani “bosqichli rivojlanish”. Evropa mamlakatlaridagi klassik urbanizatsiya va sharqona urbanizatsiya, “real” va “soxta urbanizatsiya” tushunchasi, jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasiga ko‘ra guruhlanishi. Urbanizatsiyaning sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va ekologik muammolari. O‘zbekistonda urbanizatsiyaning rivojlanish tarixi va bugungi holati, muammolari, uning hududiy xususiyatlari, A.Soliev, O.Ota-Mirzaev, A.Qayumov, Z.Rayimjonov, E.Ahmedov va boshqalarning O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni va shaharlar rivojlanishiga qo‘shgan hissalari. Urbanizatsiya va geoekologiya.

Shaharsozlik masalalari. Shaharlarning bosh rejasi.

Shaharsozlik va rayon planirovkasi haqida tushuncha. Shaharlarning bosh rejasi, uni tuzishdagi asosiy vazifa va maqsadlar. Shaharsozlik g‘oyalarining rivojlanishi: shahar va shahar aglomeratsiyalarini joylashtirish va rivojlantirish sxemalari (V.Kristaller, A.Lyosh, P.Izard, X.Xagget, A.Kol, X.Xoyt, P.Polyan va b. modellari), shahar planlari (Katta London, Katta Parij, Tokio, Katta Toshkent va b.)

Shahar va shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi. Hududni funkstional zonalarga, sektorlarga ajratish. Shahar aholisini hududiy tashkil Etish. Shaharda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini joylashtirish. “Aqilli shahar” tushunchasi. Bozor munosabatlari sharoitida shahar qurilishi masalari.

Shaharlarning Bosh rejasi , uni tuzishdagi asosiy vazifasi va maqsadlar. Shahar planlari (Katta London, Katta Parij, Tokio). O‘zbekiston shahar qurilishi masalari. Yirik shaharlarning planlari (Katta Toshkent, Samarqand va boshqalar).

O‘zbekiston shaharlari geografiyasi.

O‘zbekistonning turli mintaqalarida shaharlarning vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. Respublika shaharlarining shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. O‘zbekiston shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning shaharlar bilan ta’minlanishi. Shahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Viloyat shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari. O‘zbekiston va uning hududlarida urbanizatsiya jarayoni, rivojlanish bosqichlari.

Respublikada shaharlarni hududiy tashkil etish, rivojlanishini takomillashtirish va boshqarish, unga oid Prezident farmonlari, davlat qarorlari, O‘zbekistonda shahar qurilishi masalalari va yirik shaharlarning planlari. O‘zbekiston shahar va shaharchalari toponimikasi. Nomlarning kelib chiqish tarixi. Shahar nomlarining o‘zarishi va bu boradagi davlat qarorlari.

Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari geografiyasi.

Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlarining vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlarining shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning shaharlar bilan ta’minlanishi. Shahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Viloyat shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari geografiyasi.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlarining vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlarining shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning shaharlar bilan ta’minlanishi. Shahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Viloyatlar shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari.

Janubiy O‘zbekiston iqtisodiy rayoni shaharlari geografiyasi.

Janubiy O‘zbekiston iqtisodiy rayoni shaharlarining vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. Janubiy O‘zbekiston iqtisodiy rayoni shaharlarining shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. Janubiy O‘zbekiston iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonning shaharlar bilan ta’minlanishi. Shahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Viloyatlar shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari.

Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlari geografiyasi.

Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlarining vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlarining shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonning shaharlar bilan ta’minlanishi. Shahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Viloyatlar shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari.

Farg‘ona va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari shaharlari geografiyasi.

Farg‘ona va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari shaharlarining vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. Farg‘ona va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari shaharlarining shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. Farg‘ona va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning shaharlar bilan ta’minlanishi. Shahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Viloyatlar shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari.

Qishloqlar geografiyasining fan sifatida rivojlanishi.

Qishloq joylarni iqtisodiy geografik tadqiq qilishning ilmiy nazariy asoslari. Qishloqlar geografiyasi fanining shakllanishi va rivojlanishi. Fanning rivojlanishiga xissa qo‘shgan xorijiy va o‘zbek olimlarining ilmiy-nazariy ishlari. Xorijda va O‘zbekistonda qishloq geografiyasi fanidagi amaliy geografik tadqiqotlar. Qishloq joylarni o‘rganishda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Qishloqlarning geografik joylanishi omillari. Qishloq joylari tushunchasi. Qishloq joylarining xo‘jalikdagi ahamiyati. Qishloq joylarining iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganish. Suburbanizatsiya, Dezurbanizatsiya.

Qishloq joylarning turlari. Qishloq joylarning johon mintaqalari bo‘yicha turlanishi. Qishloq joylarining aholi soni bo‘yicha guruhlanishi. Qishloq joylarining aholi soni bo‘yicha guruhlanishi. Qishloq joylarining funksional belgilari. Qishloq joylarini o‘rganishning iqtisodiy-ijtimoiy tahlil. Qishloqlarni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

O‘zbekiston respublikasi qishloq joylari geografiyasi.

O‘zbekistonda qishloq joylarining ajratish mezonlari. O‘zbekiston respublikasining hududiy tarkibida rayonlar, qishloq aholi punktlarining soni. Qishloq rayonlarining hududiy tarkibi. O‘zbekiston Statistika boshqarmasi ma’lumotlari bo‘yicha qishloq aholi manzilgohlari tasnifi. Respublikada qishloq rayonlarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va roli. O‘zbekiston

Respublikasi qishloq rayonlarining bajaradigan funksiyasi. Qishloq joylari aholi tizimini shakilllanishida tabiiy-geografik omillarning ta’siri.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Shaharlarning geografik o‘rnini tahlil qilish.
2. Shaharlarning genetik tipologiyasini tuzish.
3. O‘zbekiston shaharlari piramidasini tuzish.
4. O‘zbekiston va viloyatlar shaharlarining funksional tipologiyasini tuzish.
5. Jahonning yirik shahar aglomeratsiyalarini aniqlash va o‘lchamiga ko‘ra guruhlash.
6. O‘zbekiston shahar aglomeratsiyalari tavsifi.
7. Jahon davlatlari urbanizatsiya darajasini aniqlash va guruhlashtirish.
8. O‘zbekiston va viloyatlar urbanizatsiya darajasini tahlil qilish.
9. O‘zbekiston shaharlari tarkibini aniqlash.
10. O‘zbekiston shaharlari hududiy tarkibini aniqlash.
11. O‘zbekiston shaharlarini tasniflash.
12. O‘zbekiston shaharlariga iqtisodiy-gaografik tavsif berish.
13. Qishloqlar geografiyasi. Qishloqlar haqida tushuncha.
14. Qishloqlar klassifikatsiyasi.
15. Hozirgi zamon qishloqlarini rivojlantirish omillari.

Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to‘ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmli topshiriq tuzish;
- Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo'q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;
- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;

	- Adabiyotlar ro'yxatini tuzish; **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:** 1. Shahar tashkil qiluvchi va shaharga xizmat kiluvchi omillar 2. Shaharlarning vujudga kelishida geografik urinning roli 3. Shaharlarning genetik tipologiyasi 4. Shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan shugullanadigan olimlarning ilmiy ishlari 5. Shaharlarning funksiyalari va tiplari 6. O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari 7. Shahar klassifikatsiyasi va shaharlar piramidasi 8. O'zbekiston yirik, katta, urta va kichik shaharlari 9. N. N. Baranskiyning shaharlar rivojlanishiga qo'shgan hissasi 10. Shaharlarning xududiy tarkibi va olimlarning qilgan ishlari 11. Shaharlarni joylashtirish sxemasi 12. Shaharlarning hududiy tizimlari 13. Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari 14. O'zbekistonning yangi shaharchalari va ularning rivojlanish muammolari 15. O'zbek olimlarining shaharlar rivojlanishi muammolariga qo'shgan hissasi 16. Shaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari. 17. Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari. 18. Megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari. 19. Jahonning yirik megalopolislari, ular rivojlanishining ijobiy va salbiy jihatlari, boshqarish va tartibga solish yo'llari. 20. O'zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari. Toshkent aglomeratsiyasi. 21. O'zbekistonda shaharlar hududiy tizimlarining shakllanish va rivojlanish muammolari. 22. Yirik shahar tizimlarining iqtisodiy, sotsial, yekologik, demografik, transport, shahar qurilishi va boshqa muammolari, ularni hal etish usullari. 23. Urbanizasiya sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va yekologik muammolari 24. Yevropa mamlakatlarini urbanizatsiya darajasiga ko'ra guruhlanishi 25. Poytaxt shaharlar, ularni tanlash va rivojlantirishga qo'yilgan talablar. 26. Poytaxt shaharlar muammolari. 27. Poytaxt shaharlar geografik o'rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati. 28. O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo'yicha guruhlarga ajratilishi 29. Shaharlarning funksional tiplarga ajratish usullari, yirik ko'p funksiyali shaharlar 30. Bozor munosabatlariga o'tish davrida shaharlar funksiyalarining o'zgarishi
3.	**V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Talaba bilish kerak:** • geografiya fanini tizimlarga bo'lish, koinotning yerga ta'siri va uning asosiy oqibatlarini, geografik qobiqni yuzlama va bo'ylama yo'nalishida tabaqalanish sabablarini, geosferalarning tuzilishi va ularning joylanishiga ta'sir etuvchi omillar***tasavvurga ega bo'lishi***; **(bilim)** • Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, gyeografiya fanlari tizimi, koinot to'g'risidagi asosiy tushunchalar, geografik qobiqning asosiy xususiyatlarining tuzulishi, undagi harakatlar, geografik qobiqning rivojlanish tarixini ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)***.

	• Umumiy Yer bilimi fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar, internet ma’lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o‘quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo‘yicha ma’lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta’lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, disskusiya, rolli o‘yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o‘qitilishi amalga oshiriladi va o‘quvchilarni baholay olish to‘g‘risida malakalariga ega bo‘lishi kabi ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak (malaka)***
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • *ma‘ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara* • *interfaol keys-stadilar;* • *diologik yondoshuv* • *SWOT tahlili* • *Wenn diagrammasi* • *Bliz so`rov* • *nilufar guli* • *baliq skleti* • *kim chaqqon* • *blis so`rov* • *blis test va boshqalar*
5.	**VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.
6.	**VII. Asosiy adabiyotlar** 1. Soliyev A., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. Shaharlar geografiyasi.-T.,2018. 3. Эрдонов М.Н. Шаҳарлар географияси(услубий қўлланма). – Термиз. 2020 й. 4. Tashtayeva S. Shahar aglomeratsiyasi. -T.,2021 y. **VIII. Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Lappo G.M. Geografiya gorodov.- M., 1997. 2. Ata-Mirzayev O. B., Gentshke V., Murtazaeva R., Saliev A. Istoriko-demograficheskie ocherki urbanizatsii Uzbekistana. – T.: Universitet, 2002. – 125. 3. Ahmedov E.A. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.- T., 2004. 4. Pertsik Ye.N. Geografiya gorodov.(Geourbanistika). -M.1991. 5. Pertsik Ye.N. Geourbanistika.-M., Akademiya, 2009. 6. Pivovarov Yu. A. Rossiya i mirovaya urbanizatsiya / Antropokulturnaya i prostranstvennaya dinamika/. – Nalchik: Poligrafservis, 2007. – 334 s. 7. Taylor P., et al., Ed., Global Urban Analysis: A Survey of Cities in Globalization, Earthscan, London, UK, 2010. 8. Эрдонов М.Н. Шаҳарлар географияси (услубий қўлланма). – Термиз. 2020 й. 9. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman matireallari.-Toshkent, 2007. **Axborot manbaalari** 1. http:// www.un.org/ yesa/ population/ publikations/ 2. http:// www. google.com. 3. http:// www. gretestcities com. 4. http:// www. urban.org.ru. 5. www.Ziyo.net.

	6. http://lex.uz. 1.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "___" _____ ____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:** B.M.Musayev – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi v.b. dotsenti.
9.	**Taqrizchilar:** O.I.Sherxolov - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi v.b. dotsenti (ichki) L.Z.Ibragimov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 94 o'rinni egallagan Moskva davlat universitetning geologiya fakulteti Geografiya yo'nalishi «География мирового хозяйства» dasturi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

"Shaharlar va qishloqlar geografiyasi" fanining dasturi tayyorlandi.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_ecgr_sgzs_gmh_Geourbanistika_2023.pdf

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetning 2025-yil 23-apreldagi 2- sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi: **B.B.Musayev**

Kafedra mudiri: **F.A.Xamroyeva**

Fakultet dekani: **U.N.Mirzayev**

O'quv-ishlar bo'yicha prorektori: **N.H.Musulmonov**

Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrasi v.b. dotsenti B.M.Musayev tomonidan tayyorlangan “Shaharlar va qishloqlar geografiyasi fanidan” o‘quv fan dasturiga

TAQRIZ

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangidan yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Xususan, respublikamizda xorijiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni respublika oliy ta’lim tizimida joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada “Geografiya” fanida ham salmoqli o‘zgarishlar, yangilanishlar ro‘y berdi.

Mazkur fan dasturi ya’ni shaharlar va qishloqlar geografiyasi fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlar tizimi tarkibiga kiruvchi o‘quv fani hisoblanadi. Bu fan talabalarga shaharlar va qishloqlar geografiyasi ijtimoiy geografik fan sifatida geografiya yo‘nalishi talabalariga jamiyatning siyosiy hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rgatadi. U ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlari bilan bir qatorda, geourbanistika, tarix, geologiya va boshqa fan tarmoqlari bilan uzviy aloqador. shaharlar va qishloqlar geografiyasi zamonaviy oliy ta’lim tizimida yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Ushbu fan dasturi Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda shaharlarning hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlari, shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari, iqtisodiy geografik o‘rni va geografik jihatlariga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat va shu kabi masalalar bilan bo‘lajak geograf mutaxassislarga tanishtirib borishi masalasini qamrab oladi.

“Shaharlar va qishloqlar geografiyasi” iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy asoslarini to‘liq qamrab olgan va har bir mavzu bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirib o‘tilgan bo‘lib, dasturning amaliy mashg‘ulot qismi bakalavrlarning nazariy jihatdan egallagan bilimini amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o‘z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish va o‘tkazish talablariga javob beradi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Geografiya kafedrasi v.b. dotsenti: **O.I.Sherxolov**

Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrasi v.b. dotsenti B.M.Musayev tomonidan tayyorlangan “Shaharlar va qishloqlar geografiyasi fanidan” o‘quv fan dasturiga

TAQRIZ

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash sharoitida ma’naviy yuksalishimizga ko‘mak beradigan, milliy g‘urur va iftixorimizni kuchaytiradigan, ko‘p jihatdan har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadigan ilmiy manbalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yaratishga e’tibor qaratish dolzarb vazifalardandir. Bu borada, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori B.M.Musayev tomonidan, **“Shahrlar va qishloqlar geografiyasi fanidan”** o‘quv fan dasturi yozilganligi, mazkur masalani ijobiy hal etishga qo‘shgan katta hissasi hisoblanadi.

O‘zbekistonda shahar va qishloq to‘g‘risida bilimlar juda qadimdan rivojlangan bo‘lsa ham asosiy tadqiqotlar o‘tgan XX asrning o‘rtalaridan boshlab amalga oshirilib kelinmoqda. Biroq, hozirga qadar shaharlar geografiyasiga bag‘ishlangan adabiyotlar, darsliklar deyarli yo‘qligini ko‘ramiz. Mazkur olimlar tomonidan o‘zbek tilida “Shaharlar va qishloqlar geografiyasidan” o‘quv fan dasturi yaratilishi ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu fan dasturi Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda shaharlarning hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlari, shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari, iqtisodiy geografik o‘rni va geografik jihatlariga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat va shu kabi masalalar bilan bo‘lajak geograf mutaxassislarga tanishtirib borishi masalasini qamrab oladi.

“Shaharlar geografiyasi” iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy asoslarini to‘liq qamrab olgan va har bir mavzu bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirib o‘tilgan bo‘lib, dasturning amaliy mashg‘ulot qismi bakalavrlarning nazariy jihatdan egallagan bilimini amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o‘z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish va o‘tkazish talablariga javob beradi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU
“Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya”
kafedrasi professori: **L.Z.Ibragimov**

ning imzosini
tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi boshlig'i

XODIMLAR BO'LIMI